

Byudjet tashkilotlari moliyaviy mablag‘laridan samarali foydalanishda ichki auditning ahamiyati

Mashxura Azadovna Sharapova
sharapovamash@mail.ru

TDIU

Bekzod Sharabidinovich Muradov

B.Sh.Muradov@gmail.com

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazoratini taokmillashtirish jarayonida byudjet tashkilotlari moliyaviy mablag‘laridan samarali foydalanishda ichki audit xizmatlari faoliyatini takomillashtirish yo‘llari yoritilgan. Shuningdek, ichki audit xizmatlari tomonidan amalag oshirilgan nazorat tadbirlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: davlat moliyaviy nazorati, byudjet tashkilotlari, ichki audit, ichki audit xizmatlari, nazorat tadbirlari, moliyaviy kamchiliklar

The importance of internal audit in the effective use of financial resources of budgetary organizations

Mashkhura Azadovna Sharapova
sharapovamash@mail.ru

TSUE

Bekzod Sharabidinovich Muradov

B.Sh.Muradov@gmail.com

Banking and Finance Academy of Republic of Uzbekistan

Abstract: This article describes ways to improve the activities of internal audit services for the effective use of financial resources of budgetary organizations. As a result of improving state financial control, control activities carried out by internal audit services were also analyzed.

Keywords: state financial control, budgetary organizations, internal audit, internal audit services, control measures, financial shortcomings

MAVZUNING DOLZARBLIGI

Mamlakatimizda davlat mablag‘larini maqsadli boshqarish va ulardan samarali foydalanish borasida moliyaviy nazoratini yanada takomillashtirish bo‘yicha keng

qamrovli islohatlar amalga oshirilmoqda. Byudjet jarayonining shaffofligini yanada oshirish uchun jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag‘ oluvchi muassasalarda byudjet intizomiga rioya etilishida mas’ul shaxslarning mas’uliyatini oshirish, elektron dasturlardan foydalangan holda byudjet qonunchiligini buzish holatlarining oldini olish shular jumlasidandir.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ning 4-maqсади “Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini «fuqarolarga xizmat qilishga yo‘naltirish”[1] deb nomlanib, unda Davlat byudjeti xarajatlari samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan: davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini qayta ko‘rib chiqish, byudjet tashkilotlaridagi ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanishi ta’minlashga qaratilgan axborot tizimlarini takomillashtirish, ichki audit xizmati xodimlarini malakasini oshirish va sertifikatlash tizimini yaratish masalalari dolzarb masalalardan bo‘lib hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Rossiyalik iqtisodchi olim G. V Vershininaning fikricha “Ichki audit - tashkilot faoliyatini mustaqil va obyektiv faoliyati bo‘lib, boshqaruv tizimining samaradorligi, boshqaruv amaliyoti va ichki nazorat tizimlaridagi kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash va baholash maqsadida amalga oshiriladi” [2].

Ichki audit, boshqaruv tizimining zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi va nazorat jarayonlarini yaxshilashni tavsiya qiladi. Va yirik tashkilotlarda boshqaruv tuzilmasi keng mastshabli bo‘lganligi sababli, menejment har kuni barcha qismlarni nazorat qila olmaydi, bu esa ichki auditga bo‘lgan talabni oshiradi[3].

Ichki audit tashkilotdagi ichki nazorat tizimining samaradorligini o‘rganish va baholash, mumkin bo‘lgan zaifliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berishga qaratilgan [4].

N.A.Kazakovaning e’tirof etishicha, davlat sektorida auditning asosiy vazifalari byudjet mablag‘larini taqsimlanishining obyektivligini o‘rganish, byudjet mablag‘laridan foydalanishning natijaviyligini tekshirish, byudjet mablag‘laridan maqsadli va to‘g‘ri foydalanishni auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish, mablag‘lardan maqsadli foydalanish bo‘yicha boshqaruv strategiyasini ishlab chiqish, tegishli organlarga tekshirish natijasi bo‘yicha axborot va hisobotlar tayyorlab berishdan iborat [5].

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.Ibragimov va S.Mehmonov ichki nazorat xizmati davlat organi raxbariga nazorat natijalari to‘g‘risida hisobotlar va davlat organi ishining samaradorligini oshirish maqsadida uning faoliyati bo‘yicha to‘g‘ri va yakuniy natijalarga erishish uchun ichki jarayonlar, qoidalar, protsesslarni yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar beradi, deb ta’kidlaydilar [6]

Byudjet tashkilotlarida ichki audit - tashkilot tomonidan smetalarni tuzish hamda ijrosini amalga oshirishni qonunchilik hujjatlariga rioya qilinishini tekshirish hamda monitoring olib borish yo‘li nazorat qilish, moliyaviy hisobot ma’lumotlarini ishonchliligini ta’minalash, byudjet - smeta intizomiga rioya qilish, mablag‘larni maqsadli va oqilona sarflanishga yo‘naltirilgan faoliyatdir [7]

TAHLILYQ QISM

Iqtisodiy islohotlar sharoitida mamlakatimizda byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish masalasiga alohida e’tibor qaratilib, byudjet jarayonida shaffoflikni ta’minalash maqsadida nazoratini kuchaytirish, byudjetdan moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, byudjet tashkilotlarida byudjet intizomiga qat’iy rioya qilinishini ta’minalash va ular bo‘ysunadigan vazirlik va idoralarning mas’uliyatini oshirish maqsadida ta’lim, tibbiyot vazirliklari (ularning hududiy boshqarmalari)da, byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasida ichki audit xizmatlari tashkil etildi.

Ichki audit xizmatlariga byudjet mablag‘larining noqonuniy sarflanishi va talon-toroj qilinishi holatlarining quyidagi yo‘llar bilan profilaktikasini ta’minalash va ularning oldini olish vazifalari yuklatilgan bo‘lib, ular quyidagilar orqali amalga oshiriladi¹:

➤ bo‘ysunuvidagi muassasalarda xarajatlar smetasini rejalashtirish va uning ijrosi, byudjet hisobining yuritilishi, tender (tanlov) savdolarining o‘tkazilishi va shartnomalar tuzilishi ustidan monitoring qilish;

➤ bo‘ysunuvidagi muassasalar va markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari rahbarlariga byudjet hisobi va hisoboti tizimini takomillashtirish, asossiz debitor va kreditor qarzdorliklarga yo‘l qo‘ymaslik, byudjet intizomini mustahkamlash, byudjet mablag‘laridan foydalanish, shu jumladan tovarlar, ish va xizmatlarni xarid qilish samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar tayyorlash;

➤ qonunni buzish holatlarini, ularni sodir etishga imkoniyat yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida quyi muassasalarga bajarilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish.

Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari byudjet intizomini mustahkamlash qaratilgan mustaqil faoliyat bo‘lib, ularning faoliyati yillar mobaynida takomillashtirilib kelinmoqda.

Davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish hamda byudjet mablag‘laridan maqsadli va oqilona foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida Hisob palatasi va ichki audit xizmatlariga bir qator vazifalar yuklatildi[8], jumladan:

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.08.2017 yildagi “Ta’lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PQ-3231-son qarori

- har bir nazorat tadbirini tashkiliy, asosiy va yakuniy bosqichlarni o‘z ichiga oluvchi uch bosqichli tizim asosida hamda audit tadbirining turlarini aniq belgilagan holda amalga oshirish;
- audit tadbirlari natijalari to‘g‘risidagi xulosada, shu jumladan qonunbuzarliklarga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoit va omillarni, shuningdek, ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalarni va tizimli muammolarni hal qilish bo‘yicha takliflarni aks ettirish;
- har chorakda kamida bir marotaba ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida o‘z faoliyatiga oid hisobotlarni jamoatchilikka e’lon qilib borish;
- Moliya vazirligi va har bir ichki audit xizmati tomonidan har chorakda fuqarolar ishtirokidagi audit tizimi orqali aniqlangan kamida 2 tadan obyektda nazorat tadbirini o‘tkazishni nazarda tutuvchi fuqarolar ishtirokidagi audit tizimini joriy etish;
- fuqarolar ishtirokidagi audit o‘tkaziladigan obyektni aniqlash va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyati samaradorligini jamoatchilik tomonidan baholab borish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.08.2021 y., 06/21/6300/0834-son

Shuningdek, ushbu farmonga asosan barcha davlat moliyaviy nazorati tadbirlari, shu jumladan ichki audit xizmatlarining audit tadbirlari natijalariga doir barcha turdagи hujjatlar (davlat siri yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlar bundan mustasno) «Davlat auditi» dasturida jamlanishi belgilandi.

byudjet tashkilotlarida ish haqi va unga tenglashtirilgan to’lovlarining to’g‘ri hisoblanishi

ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritilgan ob‘ektlarda amalga oshirilayotgan qurilish ishlarini monitoring qilish va ularda nazorat tadbirlarini o‘tkazish

byudjet tizimi byudjetlaridan to’lanayotgan subsidiyalarning manzillilagini va samaradorligini baholash

davlat xaridlarida qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini nazorat qilish

davlat qarzi va grantlar hisobiga amalga oshirilayotgan loyihalarning natijadorligini o‘rganish

1-rasm. Ichki audit xizmatlarining profilaktika yo‘nalishlari[9]


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlaktda Davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini oshirish, byudjet qonunchiligi buzilishining profilaktikasini kuchaytirish va masofaviy moliyaviy nazoratni kengaytirish, shuningdek, davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroida Ichki audit xizmatlarining profilaktika yo‘nalishlari belgilab berildi (1-rasm).

1-jadval

Davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan 2021-2022 yillarda o‘tkazilgan nazorat (audit) tadbirlari [10]

T/r	Moliyaviy nazorat organlari	O‘tkazilgan nazorat (audit) tadbirlari soni			Aniqlangan moliyaviy kamchiliklar summasi (mlrd. so‘m)		
		2021 yil	2022 yil	O‘zgarish (%)	2021 yil	2022 yil	O‘zgarish (%)
	Jami	11 285	5 702	-48%	2 597	7 825	201%
1	Hisob palatasi	61	74	21%	1 372	3 191	133%
2	Moliya vazirligi	9 414	4 801	-49%	1 072	4 504	320%
3	Vazirlik va idoralarning ichki audti xizmatlari	1 810	827	-54%	153	130	-15%

Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari tomonidan 2021 yilda 1810 ta nazorat tadbiri o‘tkazilgan bo‘lib, natijada 153 mlrd so‘mlik moliyaviy kamchiliklar aniqlangan bo‘lsa, 2022 yilda nazorat tadbirlari o‘tgan yilga nisbatan 54%ga kamayib, 827 tani tashkil etgan bo‘lsa-da, aniqlangan moliyaviy kamchiliklar summasi o‘tgan yilga nisbatan 15%ga kamayib 130 mlrd so‘mni tashkil etgan.



2-rasm.Vazirlik va idoralarning ichki audti xizmatlari tomonidan amalga oshurulgan nazorat tadbirlari soni va aniqlangan moliyaviy kamchiliklar summasining ulushi[10] %da

Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari tomonidan o‘tkazilgan nazorat (audit) tadbirlari soni jami o‘tkazilgan nazorat tadbirlarining 2021 yilda 16 %ni va

2022 yilda 14,5 %ni tashkil etgan bo'lsa, aniqlangan moliyaviy kamchiliklar summasinin ulushi 5,9%dan 1,7%ga kamaygan.

XULOSA

Byudjet tashkilotlarida byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish, tasdiqlangan reja asosida samarali ishlatalishini nazorat qilish tashkilot faoliyatini samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. To'g'ri rejalarshirish va reja asosida maqsadli ishlatalishi bir nechta omillarga bog'liq bo'lib, ularni doimiy monitoring qilish orqali to'g'ri tashkil qilinishi bilan xarakterlanib, ushbu tizimning nazorat qilish ichki audit xizmatlariga yuklatilgan. Byudjet tashkilotlarida ichki audit xizmati faoliyatning tashkil etilishi bilan ko'plab xatoliklar va qonunbuzarliklarni oldini olish, hisob yuritishda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun turli takliflar ishlab chiqish va shu bilan byudjet tashkiloti faoliyatida ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Ammo amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan ularning faoliyatida bir qator kamchiliklar kuzatilmoidagi, tizimli muammolarini bartaraf etish o'rniiga tizimsiz tekshirish bilan shug'ullanib qolayotganligi, ichki audit xodimlari soni o'z sohasidagi obyektlar soniga nomutanosib ekanligi, ichki audit xizmatlarining xulosalari huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan qayta taftish belgilash uchun qaytarilayotganligi shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni, 28.01.2022 y.
2. Вершинина, Г. В. Внутренний аудит: сущность, проблемы и пути их решения / Г. В. Вершинина // Актуальные вопросы экономических наук. - 2015. - № 9. - С. 179-152.
3. Бурцев, В. В. Внутренний финансовый контроль на предприятиях: методологические вопросы / В. В. Бурцев // Дайджест-финансы. - 2003. - №11 (107). - С. 2-8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vnutrenniy-finansovyy-kontrolna-predpriyatiu-metodologicheskie-voprosy> (дата обращения: 29.01.2022).
4. Кузнецова, О. А. Методологические аспекты внутреннего контроля / О. А. Кузнецова, Е. Е. Васюкова // Научно-методический электронный журнал Концепт. - 2014. - № 14. - С. 6-10. - URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=22024056> (дата обращения: 02.02.2022).
5. Аудит : учебник для СПО / Н. А. Казакова [и др.] ; под общ. ред. Н. А. Казаковой. — М. : Издательство Юрайт, 2019. — 409 с.
6. Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. Byudjet nazorati va audit. O'quv qo'llanma. InfoCOM.Uz MChJ. T.: 2010. 192

7. Mehmonov S.U. Byudjet tashkilotlarida ichki audit faoliyatini takomillashtirish masalalari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2017 yil. 8-b. 11.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.08.2021 yildagi PF-6300-son
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining» 14.02.2022 yildagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida» PQ-128-son Qarori
10. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorat Inspeksiysi ma'lumotlari (<https://www.ach.uz/>, <https://www.imv.uz/>)
11. Sharapova, M. (2018). Ijtimoiy soha xarajatlarini byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirishni takomillashtirish. Biznes ekspert jurnali, (4), 124
12. Ismoilova, N., & Sharapova, M. (2019). Effective use of financial control in the public finance management (PFM). International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 1(2), 8-10.